A 3D anatomical model of a human torso, viewed from the back and slightly to the side. The model is semi-transparent, revealing internal structures such as the spine, ribs, and internal organs. The color scheme is primarily blue and purple, with a glowing orange and yellow light emanating from the internal structures, particularly the spine and chest area. The background is dark, making the glowing model stand out.

G.U. SAMIEVA,
O.K. ISLOMOV,
SH.H. ISLOMOVA,
D.N. BEKNAZAROVA

**FIZIOTERAPIYA VA
MASSAJ FANIDAN AMALIY
O'QUV QO'LLANMA**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI**

G.U. Samieva, O.K. Islomov, SH.H. Islomova, D.N. Beknazarova



**FIZIOTERAPIYA VA MASSAJ FANIDAN AMALIY
O'QUV QO'LLANMA**

O'quv qo'llanma

*Jamoat salomatligi texnikumlari va tibbiyot kollejlari o'quvchilari
uchun amaliy o'quv qo'llanma*



UO`K 615.8+615.821(075.8)

KBK 53.54ya7

F 58

G.U. Samiyeva, O.K. Islomov, Sh.H. Islomova, D.N. Beknazarova.

Fizioterapiya va massaj fanidan amaliy o`quv qo`llanma [Matn] / G.U. Samiyeva, O.K. Islomov, Sh.H. Islomova, D.N. Beknazarova. - Samarqand: Samarqand, 2024.-92 b.

Mualliflar:

G.U. Samieva- Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, tibbiyot fanlari doktori, professor

O.K. Islomov -Kattaqo`rg`on Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi Tibbiy psixologiya fani o`qituvchisi

SH.H. Islomova -Kattaqo`rg`on Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi Fizioterapiya fani o`qituvchisi

D.N. Beknazarova -Kattaqo`rg`on Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi Fizioterapiya fani o`qituvchisi

Taqrizchilar:

I.A. Axmedov -Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti 1-Ichki kasalliklar kafedrasida assistenti, PhD

N.I. Salohiy -Kattaqo`rg`on Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi uslubchisi

Ushbu amaliy muolajalar to`plami tibbiyot texnikumlari "Hamshiralik ishi", "Feldsher-akushelik ishi", "Feldsher-laborantlik ishi" mutaxassisligi o`quvchilari uchun mo`ljallangan bo`lib, na`munaviy o`quv dasturi asosida yozilgan. Amaliy muolajalar to`plamida fizioterapiya bo`limining tuzilishi, elektr bilan davolash, ultratovush bilan davolash, yorug`lik bilan davolash, quyosh, havo, suv, issiqlik bilan davolash va massaj qilish usullari haqida yozilgan.

Amaliy muolajalar to`plami tibbiyot texnikumlari "Hamshiralik ishi", "Feldsher-akushelik ishi", "Feldsher-laborantlik ishi" mutaxassisligi o`quvchilari uchun mo`ljallangan bo`lsa ham barcha yo`nalishdagi o`rta tibbiyot hodimlari foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9910-771-24-8

© G.U. Samieva, O.K. Islomov, SH.H. Islomova, D.N. Beknazarova. 2024 y

© Samarqand 2024 y

KIRISH

Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus profesional ta'limning o'quv dasturi asosida tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasining mustaqil rivojlanishga o'tishi, unda iqtisodiy demokratik jamiyat qurish, jamiyat ma'naviyatini mustahkamlash, ijtimoiy sohada yuqori natijalarga erishishda organizmni chiniqtirishni targ'ib qilish yosh avlodning, butun millatning sog'lig'ini asrash muhim masala hisoblanadi.

“Fizioterapiya va massaj” amaliy o'quv qo'llanma tibbiyot mutaxassisliklari uchun tibbiyotning amaliy asosini o'rganishda katta ahamiyatga ega. O'quv qo'llanma “Ta'lim to'g'risidagi” qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Tarmoq ta'lim standartlari” talabiga mos jaxon andozalariga javob beradigan ruhan va jismonan sog'lom, yetuk malkali kadrlarni tayyorlash, innovasion ta'lim berish va yangi o'quv texnologiyalarini dars jarayonida qo'llash, Respublika va jahon miqiyosidagi fan texnika, ijtimoiy iqtisodiy yutuqlarni yangi axborot texnologiyalari orqali ta'lim mazmunining takomillashtirish va yangilash, dars jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashni jadallashtirish, hamshiraning ishi faoliyati davomida kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalarni talab darajasida yetkazib berish, davolash profilaktika muassasalarida sanitariya va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar bo'yicha amaldagi asosiy buyruqlar va vazifalar bilan tanishtirib borish, sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarni amalga oshirishda qatnashish sifatli jaxon andozalariga javob beradigan mohir kasb egasi mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ularga malaka va ko'nikmalarni hosil qilish uchun qulay bo'lishini o'rgatish maqsadida ishlab chiqilgan.

Ushbu amaliy o'quv qo'llanma o'quvchilarni bilish lozim bo'lgan ilmiy axborotlar va o'quvchilar bajara olishlari kerak bo'lgan amaliy ko'nikmalarga alohida etibor qaratilgan bo'lib, o'quv qo'llanma amaliy mashg'ulotlar asosida tuzilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi o'quvchilarni tabiat bilan davolashga va undagi bor mo'jizalardan unumli foydalanishni o'rgatish.

“Fizioterapiya va massaj” amaliy o'quv qo'llanmasi muolajalarni odam organizmiga ta'sir mexanizmini tushuntirish. Turli kasalliklarda fizioterapevtik va massaj muolajalarini o'tkazish tartibini o'rgatish. Bemorlarga fizioterapevtik va massaj tadbirlarini qo'llash bo'yicha bilimlarni shakillantirish. O'quvchilarga davolanayotgan bemorlar bilan muloqot texnikasini o'rgatish.

Shundan kelib chiqib, hozirda ta'lim tarbiya, sog'liqni saqlash tizimlarida olib borilayotgan oqilona ijtimoiy-iqtisodiy siyosat negizida barkamol avlod orzusi turadi. Ushbu orzuni to'laqonli ro'yobga chiqarish, birinchidan ushbu sohaga mas'ul bo'lgan mutaxassilarning, ikkinchidan ezgu maqsad yo'lida kamol topayotgan yoshlarning g'ayrat-shijoati, intilishi va iste'dodiga bog'liqdir. Buning uchun esa aholi salomatligini mustahkamlash kerak.

MAVZU: FIZIOTERAPEVTIK MUOLAJALARNI O'TKAZISH TARTIBI.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj.

Mavzu: Fizioterapiya bo'limining tuzilishi va ish tartibi

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Fizioterapiya bo'limining tuzilishi

KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO MATERIALLARI, MOSLAMALAR:

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

- Zamonaviy fizioterapiya bo'limi quyidagi muolaja xonalaridan iborat:
- elektroterapiya,
- yorug'lik bilan davolash xonasi,

- ozokerit,
 - parafinoterapiya,
 - balchiq bilan davolash,
 - davo massaji,
 - suv muolajalari xonalari,
 - ingalatsion terapiya,
 - akupunktura xonalari va boshqalar.
- Bu xonalar sanitar-gigiyenik normaga to'g'ri kelib, har xil davolash apparatlari bilan jihozlangan bo'lishi lozim.
- Bo'limda shifokor xonasi, dam olish xonasi, xo'jalik ishlari xonasi kabilar ham bo'ladi. Bunday xonalar hamma statsionar, poliklinika, sanatoriya va profilaktoriylarda bo'ladi.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj.

Mavzu: Fizioterapevtik muolajalarni o'tkazish tartibi.

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Fizioterapiya bo'limida yuritiladigan asosiy xujjatlar.

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:
RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:**



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Fizioterapevtik xonada apparatlarni joriy ko'rikdan yoki ta'mirlanganligini qayd qilish jumali.
2. Instuktaj jumali.
3. Hamshiralarning ruyhati.
4. Yong'in paytida bajarilishi kerak bo'lgan harakatlar ko'rsatmasi.
5. Tibbiy xodimlarni muntazam ko'rikdan o'tkazilganligini qayd qilish jumali.
6. Tibbiy muolajalarni qayd qilish jumali.
7. Birlamchi murojaat qilingan bemorlarni ro'yxatga olish jumali.

8. Ushbu muassasada ishlovchi xodimlarning ro'yxati, manzili va telefon nomeri.

9. Hamshiralarining ish jurnali.

10. Xona yoki bo'limning ish grafigi.

11. Fizioterapiya xona hamshira va shifokorlarning lavozim vazifalari.

Quyidagi hujjatlarning nusxasi bo'lishi shart.

1. Akkredtasion – lisenziya kommissiyasining sertifikatini nusxasi

2. Lisenziya va bayonnoma.

3. Muassasani gigiyenik va sanitary holati tekshirilganligi haqida akt.

4. Fizioterapiya kabenitining hamshirasi va shifokorining ish haqidagi oylik va yillik hisobotilari.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj.

Mavzu: Fizioterapevtik muolajalarni o'tkazish tartibi.

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

O'rta tibbiyot xodimining fizioterpiya bo'limidagi vazifalari

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR.**

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Tez tibbiy yordam ko'rsatiladi.
2. Malaka oshirish kursini o'qish.
3. Muolajalarni to'g'ri bajarish.
4. Bemorlar holatini to'g'ri baholash.
5. Apparatlar ishlashini ko'zatish.
6. Sanitariya holatiga javob berish.
7. Texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.
8. Hujjatlarni yuritilishi.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj.

Mavzu: Fizioterapevtik muolajalarni o'tkazish tartibi.

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Fizioterapiya bo'limida xavfsizlik texnikasi qoidalari.

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR.**

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Elektr asboblarni guruhiga qarab ishlatiladi.
2. Suv qo'l bilan elektr asboblariga tegmaslik.
3. Simlarni ochiq bo'lmasligiga qaraladi.
4. Simlarni buralmasligiga qarash.
5. Apparatlarni quvurlarga ulamaslik.
6. Nasos apparatdan foydalanmaslik.
7. Suv bilan davolash bo'limi bo'limi texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.
8. Apparatlarni sozligini tekshirish.
9. Bemorni apparatga tegib ketmasligini ta'minlash.
10. Xonani tez-tez shamollatish.
11. Polni sirpanchiq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik.

**MAVZU: ODDIY FIZIOTERAPEVTIK MUOLAJALARNI
HAQIDA TUSHUNCHA TURLARI QO'LLASH USULLARI
KO'RSATMA VA MO'NELIKLAR.**

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Xantalma qo'yish texnikasi.

KERAKLI

ASBOB-USKUNALAR,

XOMASHYO

MATERIALLARI, MOSLAMALAR:

Xantalma, iliq suv, sochiq, latok.

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Xantal sifati tekshiriladi.
2. Kerakli narsalar qulay joyga qo'yiladi.
3. Bemorni qorni bilan qulay holatda yotqiziladi.
4. Bemor terisini ko'zdan kechirib, monelik hollari tekshiriladi.
5. Teri quruq sochiq bilan artiladi.
6. Lotokka 40–45 °C li iliq suv solinadi.
7. Suvga xantalli qog'ozlar birin-ketin botirib olinadi.

8. Suvga botirib olingan xantal, qog'ozlarni bemorning kurak sohasiga umurtqa pog'onasini 2 sm chetlab 5–6 ta qo'yiladi.

9. Ustidan quruq yumshoq sochiq bilan yopiladi

10. Vaqt o'tishi bilan xantallar bemor badanidan birin-ketin olinadi.

11. Xantal olingandan so'ng teri iliq suv bilan yuviladi, quritib artiladi.

12. Bemor kiyintiriladi va yaxshilab o'rab qo'yiladi.

Eslatma: Xantal o'z vaqtida olinmasa terini kuydirishi mumkin. Uni gazeta ustidan qo'yish also mumkin emas, chunki xantal moyining teriga bevosita ta'siri yo'qoladi. Ba'zan xantallar mumqog'oz, doka ustidan qo'yiladi. Xantallarni quruq va qorong'i joyda saqlash lozim. Saqlash muddati 8–10 oy.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj.

Mavzu: Oddiy fizioterapevtik muolajalarni haqida tushuncha turlari qo'llash usullari ko'rsatma va mo'neliklar.

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Muzli xaltacha qo'yish texnikasi

KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO MATERIALLARI, MOSLAMALAR:

Muzli xaltacha, muz bo'lakchalari, sovuq suv, sochiq.

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Muzli xaltachaning butunligi tekshiriladi.
2. Muzlatkichda oldindan tayyorlab qo'yilgan muz parchalari xaltachaga solinadi, so'ng ustiga 12–14°C ga ega bo'lgan suv solinadi.
3. Xaltacha og'zi burab mahkamlanadi.
4. Muzlar (xaltachada) bir tekisda joylanishi uchun xaltacha ikkala qo'l bilan bir necha marotaba qo'zg'atiladi.
5. Xaltachadagi muzlar erib xaltacha ho'l bo'lib qolsa, u artib turiladi.
6. Muzli xaltachani uzoq vaqt qo'llash mumkin, lekin har 10–15 daqiqadan so'ng tanaffus qilish, maqsadga muvofiq hisoblanadi.
7. Muz soladigan xaltacha quruq holda saqlanadi.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Oddiy fizioterapevtik muolajalarni haqida tushuncha turlari qo'llash usullari ko'rsatma va mo'neliklar.

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Isituvchi kompress qo'yish texnikasi

KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO MATERIALLARI, MOSLAMALAR:

Doka, 70% spirt, issiq ro'mol, kleyonka, yoki mum qog'oz, paxta.

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Bemorning isituvchi kompress qo'yiladigan joyi ko'zdan kechiriladi.
2. Kerakli narsalarni tayyorlab, qulay joyga qo'yiladi.
3. Bir bo'lak oq surp yoki doka uchi buklanadi.
4. Surp 10–12°da 70 %li spirtli eritmaga botirilib, ortiqcha suyuqlik siqib tashlanadi.
5. Eritmaga botirilgan surp bemor badanining kerakli qismiga qo'yiladi.

6. Uning ustidan 2 sm ga keng bo'lgan kleyonka yoki mum qog'oz yopiladi.

7. Ustidan yana 2–3 sm ga keng bo'lgan paxta yopiladi.

8. Bularning hammasi bint yoki issiq ro'mol yordamida mahkam qilib o'raladi.

9. Kompresning to'g'ri qo'yilganligi tekshirib ko'riladi. Bunda ko'rsatkich barmoq bog'lam tagiga kiritilib, ichki qatlamning namligi aniqlanadi (1,5–80 daqiqadan so'ng).

10. Qatlam nam bo'lsa, kompress to'g'ri qo'yilgan bo'ladi.

11. 6–8 soat o'tgach, kompress olib tashlanadi, teri quritib artiladi. Isituvchi kompress terining katta sathiga qo'yilgan bo'lsa, bemorlar yotishlari kerak. Spirtli kompresslar tez bug'lanib qurishi sababli, ularni tez-tez almashtirishga to'g'ri keladi. Bunday kompresslarni uzoq vaqt qo'llash mumkin emas, chunki ular terini qattiq ta'sirlantiradi.

MAVZU: ELEKTR BILAN DAVOLASH.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Elektr bilan davolashga mo'neliklar.

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

Apparatlar, dastasi izolyatsiya qilingan ambur, rezina poyonoz

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Elektr tokini ko'tara olmaslik.
2. Og'riq sezgisining to'la yo'qolishi.
3. Teri qoplamalarini butunligini buzilishida.
4. Xavfli o'smalar.
5. O'tkir va yiringli kasalliklar.
6. Yuqumli kasalliklar.
7. Faol o'pka sili.
8. Yuqori harorat.
9. Qon ketishga moyillik bo'lganda.
10. Arterial qon bosimi ko'tarilganda.
11. Qandli dekompensatsiyasi bosqichida tavsiya etilmaydi.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Elektr bilan davolash.

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Dori elektrofazirizini qo'llash texnikasi

KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO MATERIALLARI, MOSLAMALAR:

Apparatlar, gidrofil qistirmalar, elektrodlar, kushetka, bint, qumli xaltacha, suv.

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi.
2. Shifokor ko'rsatmasi bilan tanishib chiqqandan so'ng bemorni muolaja tayyorlanadi.
3. Muolajani o'tkazish uchun gidrofil qistirmalar (oq rangli paxmoq yoki chitdan qalinligi 1-1.5 sm 6-8 qavatli, shakli va kattaligi har ko'rinishdagi matolar)ni tayyorlanadi.
4. Gidrofil qistirmalar elektrod plastenkalariga nisbatan 2-3 sm kattaroq bo'lishini taminlanadi.

SamDTU
axborot-resurs markazi

320236

5. Dastlab gidrofil qistirmalarni tanlab iliq suvda hullab siqib shifokor ko'rsatgan usul bo'yicha tegishli a'zoga qo'yiladi
6. Elektrodlarni gidrofil qistirmalar ustidan qo'yib, qumli xaltacha yoki bint bilan maxkamlanadi
7. Bemorning ustiga choyshab yopiladi
8. Elektrodlar turgan similar shifokor ko'rsatgan qutbda turganligini tekshirib turiladi.
9. Apparatni ishga tushurishdan oldin tokni tegishlicha 127 va 220 v kuchlanishga qo'ying, bunda apparatdagi potensiyometr dastasi «0» da turishi zarur.
10. So'ngra apparatni tokka ulang. Signal lompochka yonadi so'ngra potesametr dastasi asta sekin soat sterilkasi yo'nalishi bo'ylab bir me'yorda buraladi.
11. Elektrodlar quyilgan joyda bemorda xuddi igna sanchiliyotgandek yoki achishiyotgandek hissiyotni sezishini aytiladi.
12. Bunday sezgi muolaja vaqtida susayadi buni bemorga tayinlanadi.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Elektr bilan davolash.


BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Darsonvalizatsiya o'tkazish texnikasi

KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO MATERIALLARI, MOSLAMALAR:

Iskara -1 apparati, elektrodlar spirt, paxta, salfetka, sochiq, kushetka

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Bemorga muolaja maqsadini tushuntiring, qulay vaziyatda o'tqizing yoki yotqiziladi.

2. Zarur elektrodlarni tanlab spirt bilan artib rezivatorning konussimon qismiga joylashtiriladi.

3. Keyin apparatni tokka ulang. Yashil signal lampasi yonadi.

4. Apparat ishga tushgandan so'ng o'z kaftingizga yurg'izib tok kuchini olinadi.

5. So'ngra elektrodni badan terisi bo'ylab yo'rg'izing u bilan silaganga o'xshash harakatlar qilinadi.
6. Elektrodning surilishini osonlashtirish uchun badan terisiga ta'sir ko'rsatiladigan joyiga talk sepiladi.
7. Elektroddan chiqadigan mayda-mayda uchqunlar oqimi bemorda igna sanchilayotgan va bilinar - bilinmas issiq kelayotganga o'xshash sezgi paydo bo'ladi.
8. 6-15 min davom etadigan muolajani har kuni yoki kunora o'tkaziladi.
9. To'g'ri ichakka darsonvalizatsiya qilinganda elektrod spirt bilan arting va yuziga vazilin surting, ikkinchi oyog'ini tizza bo'g'imidan bukkan holda yonboshlating, yotgan bemorning orqa chiqaruv teshigiga avaylab 4-5 sm chuqurlikka kiritiladi.
10. So'ngra rezanator dastasini qumli xaltacha bilan bostiriladi.
11. Muolajadan so'ng tokni o'chirib elektrodni to'g'ri ichakdan chiqorib oling va oqib turgan suv bilan sovunlab yuving, spirt bilan artiladi

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Elektr bilan davolash.

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

UYuCH apparatini qo'llash texnikasi

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

UYuCH apparat, spirt.

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Muolajani boshlashdan avval shifokor ko'rsatmasi bilan tanishib chiqishi kerak.
2. Muolaja bemorni yotgan holda yoki o'tirgan holatida bajariladi.
3. Muolajani gipsli bog'lam yoki kiyimlar ustidan o'yicha kerakli bajarsa bo'ladi.
4. Ta'sir qilish sohasidan metal buyumlar olib tashlanadi.
5. Hamshira shifokor ko'rsatmasi bo'yicha kerakli kondensator plastinani apparat dastasiga joylashtirib, qo'yilishi kerak bo'lgan sohaga oraliq qoldirib qo'yiladi va bemorni issiqlik sezishi haqida ogohlantiriladi.

5. So'ngra elektrodni badan terisi bo'ylab yo'rg'izing u bilan silaganga o'xshash harakatlar qilinadi.

6. Elektrodning surilishini osonlashtirish uchun badan terisiga ta'sir ko'rsatiladigan joyiga talk sepiladi.

7. Elektroddan chiqadigan mayda-mayda uchqunlar oqimi bemorda igna sanchilayotgan va bilinar - bilinmas issiq kelayotganga o'xshash sezgi paydo bo'ladi.

8. 6-15 min davom etadigan muolajani har kuni yoki kunora o'tkaziladi.

9. To'g'ri ichakka darsonvalizatsiya qilinganda elektrod spirt bilan arting va yuziga vazilin surting, ikkinchi oyog'ini tizza bo'g'imidan bukkan holda yonboshlating, yotgan bemorning orqa chiqaruv teshigiga avaylab 4-5 sm chuqurlikka kiritiladi.

10. So'ngra rezanator dastasini qumli xaltacha bilan bostiriladi.

11. Muolajadan so'ng tokni o'chirib elektrodni to'g'ri ichakdan chiqorib oling va oqib turgan suv bilan sovunlab yuving, spirt bilan artiladi

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Elektr bilan davolash.

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

UYuCH apparatini qo'llash texnikasi

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

UYuCH aparat, spirt.

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Muolajani boshlashdan avval shifokor ko'rsatmasi bilan tanishib chiqishi kerak.
2. Muolaja bemorni yotgan holda yoki o'tirgan holatida bajariladi.
3. Muolajani gipsli bog'lam yoki kiyimlar ustidan o'yicha kerakli bajarsa bo'ladi.
4. Ta'sir qilish sohasidan metal buyumlar olib tashlanadi.
5. Hamshira shifokor ko'rsatmasi bo'yicha kerakli kondensator plastinani aparat dastasiga joylashtirib, qo'yilishi kerak bo'lgan sohaga oraliq qoldirib qo'yiladi va bemorni issiqlik sezishi haqida ogohlantiriladi.

6. Apparatni ishga tushirishidan oldin, uning yerga ulanganligi tekshirish zarur.

7. Apparatni ishga tushurish uchun tok kuchini boshqaruv dastasi birinchi vaziyatga qo'yiladi, bunda endikator lampochkasi yonadi, keyin nazorat klavishi bosiladi bunda apparatning sterilkasi qizil sektor ro'parasida turishi kerak.

8. 2 – 3 min so'ng apparat qiziydi, hamshira quvvatni boshqaruv dastasini shifokor ko'rsatgan (20-40 yoki 70v) ta'sir intensivligiga to'g'rilaydi.

9. Neon lampochka yordamida kondensator plastinaning ta'sir doirasi aniqlanadi, neon lampochka yonishi kerak.

10. Kondensator plastinaning joylashishiga qarab, ko'ndalang yoki uzanasiga qo'yish usuli tafovut etiladi.

11. Ko'ndalang usulida kondensator plastina tananing qarma-qarshi sohalariga qo'yiladi, uzanasiga qo'yilganda esa plastinalar tananing bir tamoniga tangisial vaziyatda qo'yiladi.

12. Kondensator plastinani burchak hosil qilib ham qo'yish mumkin. Bu usul asosan burun sohasida qo'llaniladi.

13. Muolaja tamom bo'lgach, boshqaruv dastasi chap tamonga burilib "Выкл" keltiriladi, so'ng kondensator plastinalari bemordan chetga olib qo'yilib, muolaja o'rni 70%li spirt bilan artiladi.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Yorug'lik bilan davolash.

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Sollyuks lampasini qo'llash texnikasi

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

Sollyuks lampasi

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Quvvati 500-1000 Vt li cho'g'lanish lampasidan iborat.
2. Bu apparat badanning katta qismlariga nur berish uchun mo'ljallangan.
3. Lampa rubilnik yordamida elektr tarmog'iga ulanadi.
4. Uni nur beriladigan yuzadan 80-60 sm masofaga qo'yib ishlatiladi.
5. 15-30 minut davom etadigan muolajalar har kuni yoki kunaro o'tkazib turiladi.
6. Stolda turadigan "Sollyuks" lampasi badanning kichikroq sohalariga nur berishda keng qo'llanilib quvvati 150-300 Vt li cho'g'lanma lampadir.
7. Apparat stolga o'rnatiladi va shifokor buyurgan joyga 15-30 minut davomida nur beriladi.

MAVZU: YORUG'LIK BILAN DAVOLASH.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Yorug'lik bilan davolash muolajalariga bemorlarni tayyorlash texnikasi.

KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO MATERIALLARI, MOSLAMALAR:

Kushetka, oqliklar.

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Shifokor ko'rsatmasi bilan tanishib chiqiladi.
2. Bemorni qulay sharoitda joylashtiriladi.
3. Nurlanish sohasini ko'zdan kechiriladi.
4. Issiqlik sezgisini intensivligi haqida bemorlarni ogohlantiriladi.
5. Nurlantiruvchi apparatni ko'rsatilgan joyga joylashtiriladi.
6. Agar yorug'lik vannasidan foydalanayotgan bo'lsangiz, uni joylashtirib choyshab va ko'rpa bilanyopib qo'yiladi.

7. Muolaja davomida bemor o'zini qanday his qilayotganini so'rab turiladi.

8. Bemorni pulsini, nafas maromini, A/b nazorat qilib turiladi.

9. Bemorni nurlantirib bo'lgandan so'ng o'sha sohani yana ko'zdan kechiriladi.

10. Muolajadan so'ng bemorni dam olish xonasiga o'tkaziladi.

11. Muolaja xaritasiga muolaja bajarilganligi haqida belgi qo'yiladi.

Eslatma: Infraqizil nur muolajalarini o'tkazishda hamshira shifokor ko'rsatmasidan chetga chiqib ketmasligi kerak. Muolaja xaritasida apparatning turi, nurlantirish sohasi, muolaja vaqti, davo kursining soni, uning orasidagi enterval aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Yorug'lik bilan davolash

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Ultrabinafsha nurini qo'llash texnikasi

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

Biodozimetr moslamasi, kushetka choyshablar.

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Bemorga muolaja maqsadini tushuntiriladi
2. Biodozimetri moslamasi yordamida biodozani aniqlanadi
3. Biodozimetri odatda qorinning pastiga, kindikdan tashqari tamonga bog'lang, ayni vaqtda badanning qolgan yuzasini choyshab bilan yopib qo'yiladi.
4. Bemorni yuzini maxsus sherma bilan yopiladi.
5. Ultrabinafsha nur beradigan lampani nur berilayotgan joyga shundoqqina yonida turadigan va o'sha joyga tik tushadigan qilib o'matiladi.

6. Biodozani aniqlashda lampani nur beradigan joyidan, odatda 50 sm nariga o'rnatiladi.

7. Lampa nur socha boshlagandan 10 min o'tgach bemorni nurga solishni boshlanadi.

8. Avval plastinaning birinchi teshigini oching va uning ostidagi teriga 1 min davomida nur beriladi.

9. Keyin ikkinchi teshikni oching va uning tagidagi teriga ham 1 min davomida nur beriladi.

10. Oradan 1 min o'tgach qolgan 4 ta teshikni ham birma-bir oching, har bir teshik sohasidagiteriga ham 1 min nur beriladi.

11. Shunday qilib 6 min so'nggi teshik ochilgach, terining 1 teshik joyi 6 min, 2 teshik 5 min, 3 teshik 4 min, 4 teshik tagidagi joyi 3 min, 5 teshik 2 min, 6 teshik tagidagi joyi 1 min nur olgan bo'ladi.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kash kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Yorug'lik bilan davolash

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Minin lampasidan foydalanish texnikasi

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

Minin lampasi

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Bemorga muolaja maqsadini tushuntiriladi.
2. Bemorni mini lampa qarshisida qulay vaziyatda kushetkaga o'tqaziladi.
3. Mini lampasi parabolik shakldagi reflektorga o'matilgan quvvati 40-60 vt keladigan cho'g'lanmalampochka bo'lib, uning sozligini tekshiriladi.
4. Mini lampasini qancha masofaga tushirishni bemorga xush yoqadigan issiqlik sezishiga qarab to'g'rilanadi.
5. Mini lampani bemor qarshisidan 15-20 sm masofada joylashtiring.

6. Bemorga mini lampa yordamida infraqizil nurni har kuni 10-20 min dan kuniga 2 marta beriladi.

7. Muolaja jarayonida bemor o'zini qanday his qilayotganini so'rab turiladi.

8. Muolaja tugagandan so'ng bemorga yotib dam olishini tayinlanadi.

Eslatma: Mini lampa yordamida beriladigan infraqizil nur asosan og'riqni qoldiradigan va infeltiratlarning so'rilib ketishiga yordam beradi.

Infraqizil nurlanish muolajasini o'tkazishda uni bajarish qoidalarining buzilishi to'qimalarning li qizishiga, birinchi hattoki ikkinchi darajali termik kuyish paydo bo'lishiga qon tomirlar kasalligining qo'zishiga olib keladi.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Yorug'lik bilan davolash

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Havo vannalarini o'tkazish texnikasi

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:
RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:**



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi
 2. Havo harorati 20C va shamol paytda boshlash kerak
 3. Vannani kunning birinchi yarmida va ovqat yeb bo'lgandan so'ng boshlash kerak
 4. Kiyimlar asta sekin avval qo'l oyoqlar, keyin tanadagi kiyimlar yechiladi
 5. Dastlab vanna 10-15minurdan boshlanadi
 6. Keyin har kuni 5-10minutdan uzaytiriladi va 1-2 soatga yetkaziladi
 7. Muolaja muddati ob-havoga bog'liq
- Havo salqin bo'lib turgan mahal vannani olish bilan birga yengil gimnastika qilish yoki yurib turish kerak

MAVZU: QUYOSH, HAVO, SUV BILAN DAVOLASH

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Badandan suv quyish texnikasi

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

Kushetka

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi
2. Suv quyishning umumiy usulida bemor yalang'och tanasiga asta-sekin 2-3 chelak suv quyiladi
3. Suv harorati birinchi muolaja 34-32C, keyingilarida 1-2 C ga tushirilib, asta-sekin 20-22C ga yetkaziladi
4. Muolajadan keyin badan choyshab yoki sochiq bilan qizarguncha ishqalab artiladi
5. Bemor dam olish xonasida 30-40minut kushetkada yotib dam oladi

Suv quyishni bemor vanna qabul qilgandan so'ng, yakunlovchinmuolaja sifatida ham bajarsa bo'ladi

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Quyosh, havo, suv bilan davolash

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Ignasimon dush qabul qilish texnikasi

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

Dush, sochiq

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

Ignasimon dush.

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi.
2. Bemorga dush berishdan oldin aralashtirgich yordamida kerakli harorat hamda bosimdgı suv tayyorlanadi, so'ng bemor muolajaga taklif etiladi.

3. Yomg'irsimon dushga o'xshab ketadi.
4. Bu dush setkasininghar bir teshigi toraytirilgan, ya'ni maxsus ignasimon uchligi bo'ladi.
5. Dushdan oqib tushayotgan ingichka suv oqimi bemorga igna sangandek sezgini hosil qiladi.
6. Yomg'irsimon va ignasimon dushlar uchun 1 – 1,5 atm. bosim qo'llaniladi.
7. Suv harorati 25 – 30 C, muolaja vaqti 2 – 5 min bo'ladi hamda har kuni yoki kunora o'tkaziladi.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Quyosh, havo, suv bilan davolash

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Yomg'irson dush qabul qilish texnikasi

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

Dush, sochiq

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Bu dush teshiklari bor maxsus setkali moslamadan iborat bo'lib, bemor tanasiga suv yomg'ir tomchisidek oqib tushadi.
2. Maxsus aylanma trubalardan iborat bo'lib, ulardagi mayda teshiklar orqali bemorga ingichka suv oqimi yuboriladi.
3. Muolaja vaqti 2 – 5 min, har kuni buyuriladi.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Quyosh, havo, suv bilan davolash

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Yelpig'ichsimon dush qabul qilish texnikasi

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

Dush

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Buning uchun sharko dushi shlangasining uchligi bosh barmoq bilan bosib turilib, 3 - 4 metr narida turgan bemorga Yelpig'ich shaklida yuboriladi.
2. Suv harorati 30-32 gradusdan 20 gradusgacha pasaytiriladi
3. Muolaja vaqti 1,5-2 minut

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Quyosh, havo, suv bilan davolash

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Sharko dushi qabul qilish texnikasi

**ERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

Dush

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Dush kafedrasiga o'ratilgan maxsus shlangga metal uchlik o'ratiladi.
2. Suv 2-3 atm bosimida otilib chiqib, bemor organizmining tegishli qismiga yuboriladi.
3. Suv harorati avval 30-32 gradus, so'ng asta –sekinlik bilan pasaytirilib 20 grsdusga yetkaziladi.
4. Muolaja har kuni 1-2 minut o'tkaziladi.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Quyosh, havo, suv bilan davolash

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Shotland dushi qabul qilish texnikasi

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

Dush

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Issiq va sovuq suv kontrastidan iborat otilib chiqadigan 2 ta suv oqimi bo'lgan dushdir.
2. Kafedradagi 2 xil shlangdan 40 gradus li issiq va 20 gradusli li sovuq suv navbatma-navbat 10-15 sekundan 4-5 marotaba yuboriladi.
3. Muolaja 3-4 min davom etadi.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kash kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Quyosh, havo, suv bilan davolash

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Ho'l choyshabga o'rash texnikasi

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

Kushetka, adyol, ho'l choyshab, iliq suv, sochiq

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi.
2. Kushetka ustiga 2 qavat adyol solinib, ustidan ho'llab siqib olingan choyshab yoyiladi.
3. Suvning harorati 20-25 gradus bo'lishi kerak.

4. Yalong'och bemor qo'llarini ko'tarib, orqasi bilan kushetkaga yotadi.

5. Ho'l choyshabning bir tamoni qo'ltiqlari ostidan o'tkazilib o'rab, so'ng qo'llar tushirilib, ikkinchi tamoni chuqur Burma hosil qilib o'raladi.

6. Ustidan yaxshilab o'ralib, bo'yiniga sochiq, peshonasiga sovuq kompress qo'yiladi.

7. Muolaja vaqti bemorning haroratini tushirish uchun 10-15 minut, bemorni terlatish uchun 40-60 minut buyiriladi.

8. Muolajadan so'ng bemorga qisqa muddatli dush yoki vanna qabul qilish tavsiya etiladi.

9. Suvning harorati 34-35 gradus bo'lishi kerak.

10. Muolaja har kuni o'tkaziladi.

11. Davo kursi 15-20 muolaja.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Quyosh, havo, suv bilan davolash

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Chuchuk vanna-xantal vannalari qabul qilish texnikasi

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

Xantalma, iliq suv, vanna, sochiq.

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi.
2. Ozigina iliq suvda bo'tqa shakliga keltirilgan 150-250g quruq xantal vannaga solinadi.
3. Suv harorati 37-39 gradus C bo'lishi kerak, vaqti 5-8 minut.
4. Vanna qabul qilib bo'lgandan keyin, bemor iliq suvda yuvinadi va 30-60 min o'ralib yotadi.
5. Xantal vannalar terini ta'sirlantiradi va qizartiradi.
6. Vannalar nafas yo'llarining o'tkir shamollashlarida tayinlanadi.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Quyosh, havo, suv bilan davolash

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Marvarid vannasini qabul qilish texnikasi

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

Metall nay, vanna, iliq suv, sochiq.

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi.
2. Marvarid vannalarning ta'sir qiluvchi muhiti havo pufakchalari juda ko'p bo'lgan suv bo'lib, unga mayda va ko'p teshikli ingichka metal naydan bosim ostida havo yuboriladi.

3. Bunda suv shovqini hosil bo'lib, bemorga mexanik ta'sir ko'rsatadi.
4. Bemor suv bilan havo haroratining kontrast ta'sirini sezadi: suv 35-36 gradus C havo 15-20 gradus C.
5. Bu vannalar asab sistemasi, funksional o'zgarishlarida, umumiy charchoq, gipertoniya kasalligining I bosqichida ta'vsiya etiladi.
6. Muolaja vaqti 10-15 minut, har kuni yoki kunora.
7. Davo kursi 12-15 muolajadan iborat.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Quyosh, havo, suv bilan davolash

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Sun'iy karbonat angidrid vannalarini qabul qilish texnikasi

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

“AN-9 ” apparati, sovuq suv vanna, sochiq, CO2 gazi, maxsus ballon.

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi.
2. Vannalardan foydalanish uchun suv bilan davolash bo'limlarida “AN-9” apparatidan foydalaniladi.
3. Maxsus ballondan 2 atm bosim bilan CO2 va sovuq chuchuk suv apparatga beriladi.
4. Apparatda suv CO2 ga to'yinib, vannaga uzatiladi.

5. Vannaning 1/3 qismi issiq suv bilan oldindan to'ldirilgan bo'ladi.
6. Vannadagi suvning harorati indifferent(34-36 C) bo'lishi kerak.
7. CO₂ vannaga botirilgan tana mayda pufakchalar bilan qoplanadi va tana sovuqni sezmaydi.
8. CO₂ asab retseptorlariga kimyoviy ta'sir ko'rsatganligi uchun ular kengayadi va pereferik qon bilan ta'minlanishi yaxshilanadi.
9. Muolaja vaqti 6-10 min, kunora.
10. Vannadan so'ng 30 min dam olish shart.
11. Davo kursi 12-14 ta muolaja.

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

Mavzu: Quyosh, havo, suv bilan davolash

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Quyosh vannasini o'tkazish texnikasi

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

Soyaban, choyshablar

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi.
2. Bemor quyosh vannasidan oldin soya joyda 10 min havo vannasini oladi.
3. Quyosh vannalari 5 mindan boshlanadi (badanning old va orqa yuzasiga 2.5 min) har kuni 5 minutdan qo'shib boriladi.

4. Zaiflashib qolgan bemorlarga umumiy quyosh havo vannalari buyurulganda ularni o'rganishi uchun dastlabki 3-5 kunda yalong'och holda avval 5-10 min soyada yotib turish tavsiya etiladi va har kuni 10 min bunga 10 min qo'shib boriladi.

5. Quyosh-havo vannalarini olishda bosh tepasiga soyabon to'g'rilab qo'yish lozim.

6. Dam chalqanchasiga, dam chap va o'ng yonboshga, dam yuz tuban yotish yo'li bilan asta-sekin ag'darilib, belgilangan vaqt davomida butun tana bir teks oftobga solinadi.

7. Quyosh vannalridan ertalab foydalanish maqsadga muvofiqdir.

8. Mahalliy quyosh- havo vannalarida badanning faqat ma'lum bir qismi oftobga solinadi, badanning boshqa joylari esa choyshab bilan yopib qo'yiladi.

9. Quyosh - havo vannalarini quyidagi hollarda qo'llash yaxshi natija beradi (suyak va bo'g'imlar sili, o'pka silining produktiv fibroz formasi, podagra, raxit, frunkluyoz, ekzema, ayollar jinsiy a'zolarining yallig'lanish kasalliklari)

Eslatma: Quyidagi hollarda tavsiya etilmaydi (quyosh nuriga ortiqcha sezgirlik, o'pka sili, kollagenozlar, yurak qon tomir kasalliklarining qon aylanish buzilishi bilan o'tayotgan kasalliklar, kaxeksiya, xavfli o'smalar.)

MAVZU: ISSIQLIK BILAN DAVOLASH

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

Amaliy mashg'ulot nomi: Fizioterapiya va massaj

BAJARILADIGAN ISHLAR MAZMUNI:

Qum bilan davolash texnikasi.

**KERAKLI ASBOB-USKUNALAR, XOMASHYO
MATERIALLARI, MOSLAMALAR:**

Qum, kushetka, oqliklar, salfetka, bint, sochiq.

RASMLAR, CHIZMALAR, ESKIZLAR:



ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Bemorga muolaja maqsadini tushuntiriladi.
2. Yuviq quritilgan qumni elakda elanadi.
3. Uy sharoitida qumni tovaga solib duxovga yoki pechda 115-120 C gacha qizdiring.
4. So'ngra uni sovuqriq qum bilan aralashtiriladi
5. Qum bilan qo'l yoki oyoq og'riqlariga davo qilishda kichik mahalliy vannalar-ikki qavatli taxta yashiklardan foydalaniladi
6. Qum harorati 52-55C bo'lib, muolaja 30minut va undan ko'proq
7. Umumiy vanna ikki qavatli uzun taxta yashikdan iborat bo'lib, unga 10-12sm qalinlikda qum solinadi.

8. Bemor vannaga o'tqiziladi
9. Uning tanasi(ko'krakdan tashqari) 5sm qalinlikda qumga ko'miladi
10. Qum harorati 45-50C bo'ladi
11. Muolaja 20-30minut davom etadi
12. Muolaja tamom bo'lgach, bemor issiq dush qabul qiladi va kushetkada dam oladi

Yo'riqli texnologik xarita

(O'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 5710301- Hamshiralik ishi

